



O'ZBEK VA TURK TILSHUNOSLIGIDA EGA TALQINI

*Zilola XUDAYBERGENOVA**

Annotatsiya

O'zbek va turk tillarining qiyosiy tadqiq etilishiga doir bir qator tadqiqotlar mavjud. Biroq bu ishlar asosan qiyoslanayotgan tillarning leksik va morfologik xususiyatlarining tadqiqini o'z ichiga oladi. O'zbek va turk tillarining sintaktik xususiyatlari, xususan, ega, eganing o'zbek va turk tilshunosligidagi talqini va tadqiqi, ifoda materiallari solishtirilib o'rganilmagan. Zero, turk tilshunosligida va o'zbek tilshunosligida eganing talqinida tasniflanishida farqli yondashuvlar ko'zga tashlandi. O'zbek tilshunosligining rus tilshunosligi ta'sirida, turk tilshunosligining g'arb tilshunosligi, asosan fransuz va nemis tilshunosligi ta'sirida shakllanganligi natijasida gapning bosh bo'laklarini, xususan, eganing talqini va tadqiqida farqli yondashuvlarning tatbiq etilgani ko'zga tashlanadi. Turk tilshunosligida ega vazifasida kelgan so'zlar va so'z birikmalarining leksik-semantik mazmuni, sintaktik qurshovi, sintaktik vazifasi ham diqqatga olinadi. O'zbek tilshunosligida ega vazifasida kelgan so'zlar va so'z birikmalarining ko'pincha jumladan ajratilgan holda o'rganilganligi kuzatiladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida eganing tuzilishiga ko'ra turlari ham tasniflangan. Bu maqolda o'zbek va turk tilshunosligidagi eganing talqin qilinishi, eganing ifodalanish usullari qiyoslab o'rganiladi, ular o'rtasidagi umumiylik va tafovutlar aniqlanadi. O'zbek tilshunosligida sintaktik birliklar tadqiqida qo'llanilgan usullarga asoslangan holda qiyoslanayotgan tillardagi ega, uning struktur turlari, ifodalanish usullari o'rganiladi. Eganing ifoda materiallari solishtirish jarayonida, bu vazifada kelgan so'z turkumlarining grammatik xususiyatlari ham tavsiflanadi.

Kalit So'zlar: O'zbek Tili, Turk Tili, Sintaksis, Ega, Eganing Tasnifi

ÖZBEK TÜRKÇESİ VE TÜRKİYE TÜRKÇESİ DİLBİLİMİNDE ÖZNEİN YORUMLANMASI

Özet

Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesinin karşılaştırmalı incelenmesine ait birkaç araştırma mevcuttur. Ancak bu çalışmalar genel olarak karşılaştırılan dillerin leksik ve morfolojik özelliklerinin incelenmesini barındırır. Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesinin sözdizimsel özellikleri, bilhassa, özenin Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesinin dilbiliminde yorumlanması ve incelenmesi, ifade malzemeleri karşılaştırılarak araştırılmamıştır. Zaten Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesinin dşlbşlşmşnde özenin yorumlanmasında ve sınıflandırılmasında farklı yaklaşımlar gözlemlenir. Özbek Türkçesi dilbiliminin etkisinde, Türkiye Türkçesi dilbiliminin Batı dilbilimi, genelde Fransız ve Alman dilbilimine etkisinde gelişmiş olduğu sonucunda, özne dâhil cümlenin tüm öğelerinin yorumlanması ve incelenmesine farklı yönlerden yaklaşıldığı göze çarpar. Türkiye Türkçesi dilbiliminde özne görevinde kullanılan kelimeler ve kelime öbeklerinin anlam özellikleri, cümlenin sözdizimsel bağlamı, yüklem özelliği de dikkata alınır. Özbek Türkçesi sözdiziminde özne görevinde kullanılan kelimeler ve kelmeler öbekleri çoğunlukla cümleden ayırılmış şekilde incelenir. Aynı zamanda Özbek Türkçesi dilbiliminde özenin yapısı bakımından sınıflandırılması da yapılmıştır. Bu makalede Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesi dilbiliminde özenin yorumlanması, özenin görevinde kullanılan birimler karşılaştırılarak incelenir, onların

* Prof. Dr., Bartın Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü Öğretim Üyesi, e-mail: aloliz74@mail.ru, zkhudaybergenova@bartin.edu.tr.

arasindaki ortak ve farklı özellikler belirtilir. Özbek Türkçesi dilbiliminde kullanılan yöntemlerden yola çıkarak karşılaştırılmakta olunan dillerdeki özne, öznenin yapı bakımından çeşitleri, özne yerinde kullanılan birimlerin özellikleri araştırılır. Öznenin ifade malzemelerini karşılaştırma sürecinde bu görevi üstlenen kelime türlerinin gramer özellikleri betimlenir.

Anahtar Kelimeler: Özbek Türkçesi, Türkiye Türkçesi, Sözdizimi, Özne, Öznenin Sınıflandırılması.

INTERPRETATION OF THE SUBJECT IN UZBEK AND TURKISH LINGUISTICS

Abstract

There are a number of studies on the comparative study of Uzbek and Turkish languages. However, these studies include learning of the lexical and morphological features of the contrasting languages. The syntactic features of the Uzbek and Turkish languages, in particular, their interpretation and research in the Uzbek and Turkish linguistics, and the methods of expressions have not been studied. Thus, different approaches to the classification of subject in the Turkish Uzbek linguistics have been observed. Uzbek linguistics was formed under the influence of the Russian linguistics, Turkish linguistics was influenced mainly by French and German linguistics. As a result, it has been used different approaches in studying and interpretation in Uzbek and Turkish languages. The lexical-semantic content of the words and phrases of the Turkish linguistics, which were used as a subject and their syntactic position are also taken into consideration. It is observed that the words-subjects and phrases-subjects in Uzbek sentences have been studied separately from sentences. In addition, the structural types of the subject in the Uzbek language were also classified. In this article, the interpretation of the subject in Uzbek and Turkish linguistics, the ways of expression of the subject are compared, and the differences and community between them are determined. Uzbek scientific methods of the study of syntactic units are exploited in comparing subject in Uzbek and Turkish languages, its structural types, methods of expression. During comparison of the expression material of subject is characterized by their grammatical properties.

Key Words: Uzbek Language, Turkish Language, Syntax, Subject, Classification Of The Subject.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab XX asr boshlariga qadar g'arb qiyosiy-tarixiy tilshunosligining ta'sirida mashhur ajnabiy va rus turkshunos tilshunoslari turkiy tillarni qiyosiy o'rganish sohasida ham samarali izlanishlar olib borganlar (Abdurasulov, 2008 :3). Ayniqsa, bu sohadagi izlanishlar XX asr tilshunosligida keng quloq yoydi: Rossiya fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti turkiy tillar bo'limi, uning Peterburg va Sibir bo'limlari tilshunoslari tomonidan turkiy xalqlar yashovchi hududlardagi barcha turkiy elat va xalq tillari yetarli o'rganildi; barcha hozirgi turkiy tillarning tovushlar tizimi, lug'at boyligi va grammatik qurilishini o'rganish bo'yicha chuqur ilmiy-tekshirish ishlari olib borildi; shu asosda hozirga qadar ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, turkiy tillarning qiyosiy lug'atlari yaratildi. Turkiy tillarning mukammal qiyosiy grammatikalari asosan XX asrning II yarmida Rossiya fanlari akademiyasi Moskva va Sankt-Peterburg tilshunoslik institutlari olimlari tomonidan yaratildi. N.A.Baskakov, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjiyeva, A.M.Shcherbak kabi rus tilshunos olimlarining ko'p yillik samarali izlanishlari natijasida turkiy tillarning bir necha jildlik ilmiy tarixiy grammatikalari va monografiyalari yaratildi (Baskakov N, 1960: Serebrennikov, Gadjiyeva, 1986, Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurskix yazikov, 1984, Sravnitelno istoricheskaya grammatika tyurskix yazikov, 1988, Shcherbak, 1970, Shcherbak, 1977,

Shcherbak, 1981). Bu ishlar turkiy tillarning tarixiy-qiyosiy grammatikasi masalalari bo'yicha yozilgan. Hozirgi turkiy tillar, shu bilan birga, o'zbek va turk tillari qiyosi grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar XX asrning oxirlarida, O'zbekiston mustaqillikka erishib, Turkiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgandan keyin boshlangan. Bir til oilasiga mansub bo'lgan o'zbek va turk tillarining leksik, grammatik xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu ishlarda asosan har ikki tilning leksik-semantik, morfologik xususiyatlari o'rganilgan (Usmonova, 1998; Xudoyberganova, 1999; Siddiqov, 2000; Shabanov, 2004; Abdurahmonova, 2004). Ya'ni bu sohada hali o'z yechimini topmagan masalalar oz emas. O'zbek va turk tillaridagi ega, uning talqinlari va ifoda materiallari tadqiqi masalalari shular jumladandir.

O'zbek va turk tilshunosligida eganing o'rganilishi

O'zbek tilida bosh bo'laklarning spetsifik xususiyatlari mukammal tadqiq etilgan, bu masalaga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar ham mavjud. Ushbu tadqiqotlarda eganing tarkibi, tuzilishi xususidagi fikr-mulohazalar bayon qilinadi (Bu haqda qarang: Shoazizov, 1973:116-136). A.R.Sayfullayev gap bo'laklarining semantik-leksik xususiyatlarini tadqiq etgan ekan, egani strukturasi ko'ra uch turga bo'ladi: sodda, qo'shma, murakkab egalar. Shuningdek, ega leksik-semantik belgilariga binoan olti guruhga ajratiladi: shaxs; predmet; belgi; miqdor; harakat-holat; o'rin-joy tushunchasini bildiruvchi egalar (Sayfullayev, 1984b: 37-42). A.Safayev o'zbek tilidagi gapning bosh bo'laklarini tadqiq etgan bo'lsa-da, tilshunos eganing tuzilishiga ko'ra turlarini farqlamagan. Chunki tilshunos gapning bosh bo'laklarini ularning ishtirok etish-emasligi nuqtai nazaridan tadqiq etgan (Safayev, 1958). Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi rus tilshunosligi ta'sirida shakllangan bo'lib, eganing talqinida ham rus tilshunoslarining qarashlari o'z ifodasini topgan kuzatiladi.

Turk tilshunosligida ega kesimdan keyingi ikkinchi bo'lak bo'lib, kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajaruvchisini bildiruvchi bo'lakdir. Ya'ni ega kesimdan anglashilgan ish-harakatning amalga oshiruvchisi, reallashtiruvchisi hisoblanadi (Dizdaroğlu, 1976:15; Demir, Yılmaz, 2003:209-210). Xususan, egasiz gap bo'lmaydi, shaklidagi qarash natijasida grammatik ega (sözde özne), mantiqiy ega mavjudligi e'tirof etiladi (Demir, Yılmaz, 2003:209-210).

Ega tushunchasi uchun M.Ergin «fail» (Ergin, 1993:337), T.Banguo'g'lu «kimse» (Banguoğlu, 1990:526) atamalarini qo'llanganlari holda, boshqa tilshunoslar tomonidan asosan «özne» atamasining qo'llanilganligi kuzatiladi. M.Ergin ega xususida qisqacha ma'lumot keltiradi hamda ba'zi gaplarda ega bo'lmasligini qayd etadi (Ergin, 1993:337). T.Banguo'g'lu nisbatan ilgari ketadi va eganing grammatik ega, mantiqiy ega kabi turlarini ko'rsatadi (Banguoğlu, 1990:526). Biroq turk tilshunoslarining barchasi ham, masalan, L.Karaxan, E.Yaman kabilar egani guruhlashtirmaydi (Karahana, 2006:43; Yaman, 2000:225). Ayni paytda E.Yaman ba'zi gaplarning egasi yashirin bo'lishini bildiradi (Yaman, 2000:225). V.Xatibo'g'lu turk tilidagi eganing quyidagi o'n bir turini ko'rsatadi: haqiqiy ega (gerçek özne), nutqiy ega (sözde özne), yashirin ega (örtülü özne), noaniq ega (belirsiz özne), umumiy ega (ortak özne), kuchaytirilgan ega (pekiştirilmiş özne), bog'lovchili ega (bağlaçlı özne), izohlovchili ega (açıklayıcıdan özne), undalmali ega (seslenmeli özne), moslashuvchi ega (kayan özne), -dır affiksli ega (bildirme koşaçlı özne) (Hatiboğlu, 1982:110-120). H.Dizdaro'g'lining ishida eganing to'qqiz shakli tasniflanganligi kuzatiladi. Bunda V.Xatibo'g'lu tomonidan farqlangan noaniq ega, moslashuvchi ega, -dır -tür affiksli ega, bog'lovchili ega ayni tasnifdan o'rin olmagan, takroriy ega (yinenilmiş özne), qoliqlangan ega (kalıplaşmış özne) tiplari esa kiritilgan (Dizdaroğlu, 1976).

Albatta, eganing takroriy qo'llanishi, uyushgan kesim uchun yagona, umumiy eganing bo'lishi, grammatik, mantiqiy ega singari tushunchalar o'zbek tilshunosligida ham mavjud, biroq faqat eganing tuzilishi, gapda eganing grammatik shakllangan-shakllanmaganligiga ko'ra ega turlarini tafovutlash, nazdimizda, yetarli emasday ko'rinadi. Masalan, undalmaning gapda

sintaktik vazifani bajarasligi, biron-bir gap bo'lagi bo'la olmasligi ayon. Biroq turk tilida undalmani yoki undov so'zli undalmani eganing bir shakl turi – undalmali ega deb ta'riflanganini ko'rish mumkin. Shu fikrga ko'ra quyidagi gapning egasi **ey tatlı gece –ey totli tun** birikmasidir:

Ey tatlı gece yıllarca devam et – Ey totli tun, yıllar bo'yi davom et.

Bu gapning egasi **sen** olmoshi bo'lib, u yashiringan, ya'ni egani kesimga savol berish orqali topish mumkin. Demak, keltirilgan gap aslida bir bosh bo'lakli gapdir. Ega tarzida ko'rsatilgan birikma gapning undalmasidir. Demak, V.Xatibo'g'lu va H.Dizdaro'g'lu taklif etgan ega tasnifi til hodisalarini nisbatan boshqacha me'yorlar asosida tadqiq etish, ayrim sintaktik hodisalarni o'zgacha baholash natijasi sifatida yuzaga kelgan. Xususan, ularning tadqiqotlarida ayrim leksik-semantik, morfologik, sintaktik, stilistik me'yornarning aralashib ketgan ko'rinadi.

O'sman Bo'lulu egani mavjud bo'lgan tasniflardan birmuncha boshqacha tartibda guruhlariga ajratadi. Bunda eganing o'n turi qayd etiladi: 1) bajaruvchi ega(yapıcı özne) tub fe'l bilan ifodalangan kesimning bajaruvchisini bildiradi; 2) ta'sirlovchi ega (etkileyici özne)ning kesimi o'timli fe'llar bilan ifodalanadi; 3) ta'sir o'tkazmaydigan ega (etkisiz özne) kesimi o'timsiz tub fe'llar bilan ifodalangan gaplarning egasidir; 4) egasiz gaplar(öznesizlik – egasizlik)ning kesimi **-(y)il, -(i)n** affikslari bilan yasalgan fe'llar bilan ifodalanadi. Bu o'rinda majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesimli gaplar e'tiborda tutiladi; 5) ta'sirlangan ega(etkilenen özne) kesimi o'zlik nisbat shaklidagi gapning egasi; 6) birgalik egali(imeceli özne) gap kesimi vazifasida birgalik nisbatdagi fe'llar qo'llaniladi; 7) bajartiruvchi ega(yapıtıcı özne) o'timlidan o'timsizga aylangan fe'l bilan ifodalangan kesimning egasidir. Masalan, «*Anne çocuğu bahçede gezdirdi – Ona bolasini bog'da kezdirdi*» gapida harakat bajaruvchi ona emas, boladir; 8) bavoita ega(aracılı özne); 9) tazyiq o'tkazuvchi ega(baskıcı özne); 10) majburlovchi ega(zorlayıcı özne) (Bolulu, 1992:24-29, 46-52). O'.Bo'lulu tarafidan tilga olingan ega turlaridan so'nggi uchta nisbat shaklidagi fe'llarga taalluqli. Tazyiq o'tkazuvchi hamda majburlovchi ega turlari birdan ortiq ortirma nisbat ko'rsatkichini olgan fe'ning kesim vazifasida ishlatilishi natijasida farqlangan. O'.N.Tunaning fikricha, **daril – xafa bo'l, eksil – kamay** kabi fe'llar ta'sirlangan egali gapni hosil qiladi (Tuna, 1986:420). Bu holatning sababini quyidagicha izohlash mumkin: turk tilshunosligida fe'ning nisbat shakllari grammatik kategoriya mavqeiga ega emas. Ortirma, birgalik, majhul, o'zlik nisbati ko'rsatkichlari fe'l yasovchi qo'shimchalar sifatida qabul qilinadi. Natijada bu nisbatlar ko'rinishidagi fe'llar yasama fe'llar hisoblanadi. Nisbat shakllari orqali yuklanadigan ma'nolar esa valentliklar yoki eganing turlari sifatida talqin etiladi. Shunday bo'lsa-da, ayrim hollarda **-ir, -ar, -gir** kabi ortirma nisbat qo'shimchalari o'zining so'z yasash faolligini yo'qotganligi qayd etiladi (Erdal, 1991).

O'.Demirjan turk tilida fe'ning tuslanish tizimini tadqiq etar ekan, fe'ning nisbat shakllariga teng keluvchi grammatik ko'rsatkichlar vositasida yuklanuvchi valentliklar masalasini tahlil qiladi. O'.Demirjan U.Bo'lulu singari fe'l nisbatlarining ko'rsatkichlari vositasida gapdan anglashilgan voqea-hodisa ishtirokchilarini ifodalaydigan gap bo'laklarini tadqiq etadi. Xususan, fe'ning nisbatlari asosida bajaruvchi, bajartiruvchi, yuzaki bajartiruvchi, vositachi-bajartiruvchi, majburlovchi ega turlarini farqlaydi (Demircan, 2003:11-17). R.Anderxill ham nisbat ko'rsatkichlari yangi ega turini yaratadi, deya e'tirof etadi (Underhill, 1976).

Qiyoslang:

Herkes oturdu (Hamma o'tirdi) > Hasan herkesi masaya oturttu (Hasan hammani stolga o'tqazdi).

Ushbu gaplarda nisbat ko'rsatkichlarining qo'llanilishi natijasida harakat bajaruvchi – ega o'zgargan.

M.Bilgin turk tilidagi eganing to'rt qo'llanish shaklini ajratadi: umumiy ega, kuchaytirilgan ega, izohli ega, murojaatli ega (Bilgin, 2006:459-461). Umumiy ega, boshqa tilshunoslar qayd etganidek, uyushgan kesimlarning umumiy egasidir. O'zlik olmoshi yoki **ki** yuklamasi ishtirokidagi, xususan, takroriy shaklda qo'llangan ega kuchaytirilgan ega turini yuzaga keltiradi. Izohli ega o'zbek tilidagi ajratilgan egaga, murojaatli ega o'zbek tilidagi undalmaga teng keluvchi sintaktik birlikdir.

Demak, turk tilidagi eganing tasniflanishida ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi: birinchidan, ayrim sintaktik hodisalarni farqlamaslik, stilistik hodisalarni sintaksis doirasiga kiritish asosida amalga oshirilgan ega tasniflari (V.Xatibo'g'lu, H.Dizdaro'g'lu, M.Bilgin); ikkinchidan, fe'ning nisbat shakllari asosida taqdim etilgan ega tasniflari (U.Bo'lulu, O'.Demirjan). Eganing ikkinchi tipdagi tasniflari transformatsion grammatikaning ta'siri natijasida yuzaga kelgan. Umuman olganda, turk tilshunosligida g'arb tilshunosligining ta'siri, ayniqsa, fransuz ve nemis tilshunoslarining qarashlari izlari kuzatiladi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: O'zbek va turk tillarida sodda gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lgan ega har ikki tilda deyarli bir xil ta'riflansa-da, ammo ular turlarining ajratilishi (turk tilida), ifoda materiallarining sharhlanishiga ko'ra tafovutlanadi. Turk tilshunoslari tomonidan taqdim etilgan ega tasniflarida morfologik tasnif va tahlillardagi farqli qarashlarning sintaksisga ham bevosita ta'sir ko'rsatganligi, ba'zi stilistik hodisalar sintaktik hodisa sifatida baholanganligi, tamomila boshqa sintaktik hodisa ega turi deb ajratilganligi, xususan, ayrim adabiyotlarda transformatsion grammatika me'yorlari asosida yangi ega turlari tasniflanganligi ayon bo'ladi. Birinchi holatda, avval ta'kidlanganidek, ega turlari ba'zi sintaktik, stilistik hodisalarning aralashtirib yuborilishi natijasida tasniflangan bo'lsa, ikkinchi holatda fe'l bilan ifodalangan kesimning nisbat shakllari eganing yangi turlari farqlanishiga sabab bo'lgan. Zero, mantiqiy sub'ekt har ikki tilda umumiy bo'lishi mumkin, ammo ularni ifodalovchi vositalar o'rtasida tafovutlar kuzatiladi. Shu bois, o'zbek va turk tillaridagi eganing universal va relevant belgilarini aniqlash uchun gap bo'laklarining tuzilishiga ko'ra tasnifiga asoslanish qulay.

Eganing tuzilishiga ko'ra turlari va ularning ifoda materiallari

Solishtirilayotgan tillardagi eganing bevosita qiyosiy tadqiqini olib borish uchun bu gap bo'laklarining tuzilishiga ko'ra uch tipi asosida ish ko'rish maqsadga muvofiq: sodda ega, qo'shma, murakkab ega. Sodda ega faqat bosh kelishik formasida shakllanib, ega funksiyasida qo'llaniladigan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan predmet (substantiv) yoki predmetlashgan – predmet tasavvuridagi (substantivlashgan) bo'lakdir (Omonturdiyev, 1988: 74). Taqqoslanayotgan tillardagi sodda egalar quyidagicha ifodalanadi:

* ot bilan. Bunda otning barcha ma'no turlari – atoqli, turdosh, mavhum, aniq va sh.k. otlar gapning egasi vazifasini bajarib keladi. Masalan, quyidagi gaplarning harakat bajaruvchilari mavhum ot (**hayot**) va atoqli ot (**Cavidan**) bilan ifodalangan:

Hayot meni doim boshi berk ko'chaga tiqadi(O.M.).

Yaşam beni hep çıkmaz sokağa sokar.

Cavidan misafirimi civarda gezmeğe götürüyor(R.N.G.).

Javidan mehmonimni sayr qilishga olib ketyapti.

* olmosh bilan. Har ikki tildagi ot xarakteridagi yoki otlashgan olmoshlar gapning egasi bo'lib keladi. Masalan, keyingi gaplarda harakat bajaruvchi kishilik olmoshi (**men**) va otlashgan ko'rsatish olmoshi (**bunlar - bular**) vositasida anglashilgan:

Men baxtni sandig'i bilan sizga keltirib berar edim(O.Yo.).

Ben mutluluğu sandığı ile size getirecektim.

*Fakat **bunlar** benim ihtiyar kafamın alacağı şeyler değil (R.N.G.).*

***Bular** menday keksa odamning aqli yetadigan narsalar emas.*

* harakat nomi bilan: O'zbek tilida **-(i)sh, -moq, -maslik** shaklli harakat nomlari bilan ifodalangan egalar faol qo'llaniladi.

Masalan:

*Bu gapga **ishonish** qiyin!(O.M.)*

*Bu lafa **inanmak** zor.*

*Bir qizni bekor malomatdan **qutqarmoq** ham yigitning ishi(O.M.).*

*Bir kızı boş aşığlamadan **kurtarmak** da yiğidin işi.*

*Endi bunday odamning **topilmasligi** – boshqa masala(O.M.).*

Şimdi böyle bir insanın bulunmaması – başka konu.

Turk tilida esa harakat nomi **-mak, -mek; -ma, -me; -(y)ış, -(y)iş, -(y)uş, -(y)üş** affikslari bilan yasaladi(Korkmaz, 2003:864). Bu qo'shimchalardan birinchi ikkitasi yordamida hosil qilingan harakat nomining ega vazifasida ishlatilishi uchinchisiga nisbatan ancha faol:

***Yaşamak, yaşamak** bir alçaklıktır(Y.K.K.).*

***Yashamoq, yashamoq** bir pastkashlikdir.*

*Genç kızın açıkça halini **söylemesi** Ali Rıza Bey'e dokundu(R.N.G.).*

*Yosh qizning holini ochiq **aytishi** Ali Rizobeyga qattiq ta'sir qildi.*

*Önce ağlayan çocukların sesine yeni bir **ağlayış** katıldı(R.N.G.).*

*Avval yig'lashni boshlagan bolalarning ovozigaga yana bir yangi **yig'i(yig'lash)** ovozi qo'shildi.*

-ma harakat nomi yasovchisi umuman qadimgi turkiy tilga oid manbalarda **-ma(-ba)** ko'rinishida uchrasa-da, hozirgi o'zbek tilida ot yasovchi sifatida qo'llaniladi (birlashma, suzma) (Serebrennikov, Gadjiyeva,1979: 226-227). **-ma, -me** affiksining **-mak, -mek** qo'shimchasi tarkibidagi **k** undoshining unlilar o'rtasida kelib, ular ta'sirida "edirilib" yo'q bo'lib ketganligi orqali hosil bo'lganligi xususida ham fikrlar ham mavjud (Korkmaz, 2003:882).

-mak, -mek; -ma, -me affiksli so'zlar ega vazifasini bajarishga xoslanganida, ular o'rtasida quyidagi farq kuzatiladi. Ega vazifasidagi **-mak, -mek** shaklli harakat nomlarida ish-harakat, holat ma'nosi saqlanadi, ega vazifasidagi **-ma, -me** qo'shimchali leksemalarda esa harakat nomlanadi, ya'ni bu qo'shimcha vositasida mavhum otlarga yaqin semali so'zlar hosil qilinadi. Masalan, quyidagi gapning egasi bo'lib kelgan harakat nomi ko'proq otga teng keluvchi semaga ega, shuning uchun tarjimada ekvivalent shakldagi harakat nomi emas, ot qo'llangan:

*Omuzlarında ve kollarında başlayan bir **titreme** bütün vücudunu sarsmaya başlamıştı(Y.K.K.).*

*Yelkalaridan va qo'llaridan boshlangan **titroq** butun vujudini larzaga solmoqda edi.*

Turk tilidagi **-(y)ış, -(y)iş, -(y)uş, -(y)üş** affikslari semantik jihatdan **-ma, -me** qo'shimchalariga o'xshashdir. Bu ko'rsatkichlar fe'ning bosh ma'nosini – harakat-holat semasini o'zgartirmay, uni otlashtiruvchi, unga nom beruvchi ko'rsatkichlardir. Agar **-ma, -me**'li fe'l ko'pincha harakatni nomlasa, **-(y)ış, -(y)iş, -(y)uş, -(y)üş**'li leksema ish-harakatni amalga oshirish tarzini ifodalash imkoniga ega. Shu sababli, **-(y)ış, -(y)iş, -(y)uş, -(y)üş** ko'rsatkichli harakat nomi boshqa tipdagi harakat nomlariga qaraganda ega vazifasida kam

ishlatiladi. Shuningdek, o'zbek tilidan farqli ravishda turk tilidagi harakat nomlarining barcha ko'rsatkichlari bo'lishsizlik elementini olib ega vazifasida keladi. Bunda harakat nomi affikslari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: **-mayıs, -meyis; -mamak, -memek; -mama, -meme.**

Masalan:

Beğenmemek mümkün mü?(R.N.G.)

Yoqtirmaslik mumkinmi?

Demak, solishtirilayotgan tillardagi ega vazifasidagi harakat nomlari yasovchilari fonetik jihatdan muqobil bo'lsa-da **-(i)sh -- -(y)ıř, -(y)iř, -(y)uř, -(y)üş; -moq -- -mak, -mek,** ushbu ko'rsatkichlar semantik-funksional jihatdan to'la muqobillikni saqlay olmaydi. Qiyoslanayotgan tillarda fonetik muqobillari mavjud bo'lmagan, o'zbek tilidagi **-(u)v** va turk tilidagi **-ma, -me** harakat nomi yasovchilari semantik xususiyatlariga ko'ra ekvivalent bo'lishiga qaramay, birinchi ko'rsatkichli leksemaning ega vazifasida qo'llanilishi deyarli uchramaydi. Harakat nomi yasovchilaridan **-(i)sh** va **-mak, -mek** affikslari bilan yasalgan so'zlar ega vazifasini bajariganida, semantik, funksional jihatdan to'la muqobil keladi.

* otlashgan sifat bilan: Har ikki tildagi asliy sifatlar ham, nisbiy sifatlar ham otlashib, ega vazifasini bajarib kelishi mumkin:

Lekin o'ziga juda ham erk berib yomon yo'lga kirib ketgan tantiqlar ham bor(O.Yo.).

Ama kendini çok serbest his ederek kötü yola sapan şımarıklar da var.

Küçüklerin arasında kocaman gençler vardı(R.N.G.)

Kichiklar orasida kap-katta yigitlar (yoshlar) ham bor edi.

* otlashgan sifatdosh bilan: O'zbek tilida, ma'lumki, **-gan, -yotgan, -a/-y+-digan** affiksli sifatdoshlar faol, **-r/-mas, -vchi, -rlik, -gulik** shaklli sifatdoshlar nisbatan nafaol hisoblanadi (O'zbek tili grammatikasi, 1975:510-515). Turk tilida esa **-miş, -miş, -muş, -müs; -dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük; -(y)an, -(y)en; -r/-maz, -mez; -(y)acak, -(y)ecek; -(y)ıcı, -(y)ici, -(y)ucu, -(y)ücü** affikslari sifatdosh yasovchilardir (Banguoğlu, 1990:422-427). Bu qo'shimchalar o'zbek tilidagi sifatdosh yasovchilar bilan paradigmatic mazmuniga ko'ra quyidagi tartibda muvofiqlashadi: **-gan// -miş, -miş, -muş, -müs; -dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük, -yotgan// -(y)an, -(y)en; -a/-y+-digan//-(y)acak, -(y)ecek; -r/-mas// -r/-maz, -mez; -vchi/-(y)ıcı, -(y)ici, -(y)ucu, -(y)ücü.** Biroq o'zaro vazifasi va ma'nosiga ko'ra ekvivalent bo'lgan mazkur shakldagi sifatdoshlar ega vazifasida kelganida, ushbu ekvivalentlikni saqlab qola olmaydi. O'zaro ekvivalent sifatdosh yasovchilari bilan yasalgan so'zlarning ega vazifasida qo'llanilishini qiyosan tahlil etaylik: o'zbek va turk tillaridagi o'tgan zamon sifatdoshlari **-gan/-miş, -miş, -muş, -müs; -dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük** affikslari yordamida yasaladi, ya'ni bir qarashda ushbu affikslar o'zaro ekvivalentdek ko'rinadi. Ammo misollar tahliliga ko'ra quyidagi holat kuzatiladi: **-dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük** shaklli fe'l gapning egasi bo'lishi uchun albatta egalik qo'shimchasini olgan bo'lishi shart.

Masalan:

Asıl duyduğumuz içimizde yaşayan bir geçmiş zamanıdır (R.N.G.).

Asl uyg'ongan hislarimiz qalbimizda yashayotgan o'tmishimizdir.

Mazkur gapda **duyduk - his etgan** sifatdoshi birinchi shaxs ko'plik ko'rsatkichini olishi natijasida otlashgan va gapning egasi vazifasini ado etgan. O'zbek tilidagi **-gan** shaklli sifatdosh ega bo'lib kelganida, egalik ko'rsatkichini olgan bo'lishi shart emas. Masalan, keyingi gaplarning birinchisida sifatdosh egalik shaklida qo'llangan, ikkinchisida, aksincha, egalik shaklida emas:

Besh yil avval uchrashmaganimiz menga alam qiladi(O.Yo.).

Beş sene önce görüşmediğimizden çok üzgünüm.

*Bu gapni **eshitganlar** kulib yuborishdi(O.M.).*

*Bu lafi **dinleyenler** gülüverdiler.*

Sodda fe'l-kesimlar haqida so'z ketganida, **-gan** va **-miş, -miş, -muş, -müş** affikslarining ekvivalent bo'la olishi qayd etilgan edi. Mantiqan qaralganida, ushbu qo'shimchalar sifatdash yasovchisi sifatida ham muqobil kelishi kerak edi, biroq turk tilidagi **-miş, -miş, -muş, -müş** shaklli sifatdashlar ega vazifasi bajarmaydi. Gapning harakat bajaruvchisini bildiruvchi **-gan** shaklli sifatdashning turk tilidagi ekvivalenti sifatida **-(y)an, -(y)en** affiksli sifatdashlar ham ishlatiladi. **-(y)an, -(y)en** qo'shimchasi aslida hozirgi zamon sifatdoshi yasovchisi bo'lib, **-yotgan** shaklli tuslanishsiz fe'lga mazmunan muvofiq kelsa-da, kontekstga ko'ra o'tgan zamonga oidlikni bildirishi mumkin, bu holda, tabiiyki, **-gan** yasovchisining ekvivalentiga aylanadi:

*Dört beş yıl önce bu evde **yaşayanlar** mutlu kişilerdi(R.N.G.).*

*To 'rt-besh yıl avval bu yerda **yashaganlar** baxtli insonlar edi.*

Bu gapdagi sifatdashning o'tgan zamonga taalluqlilik ma'nosi **dört beş yıl önce - to'rt-besh yıl avval** payt holidan anglashiladi. **-(y)an, -(y)en** shaklli sifatdashlar ega vazifasini bajarganida **-yotgan** qo'shimchali sifatdashga xos mazmunni reallashtiradi.

Masalan:

*Telaşlı telaşlı saatine **bakanlar** ve ikide bir yüksekçe bir yere çıkıp uzaktan yolu **gözetleyenler** var(R.N.G.).*

*Tez-tez soatiga **qarab qo'yayotganlar** va ora-chora balandroq joylarga chiqib, uzoqdan yo'lni **kuzatayotganlar** bor.*

Shu jihatdan, **-yotgan** va **-(y)an, -(y)en** sifatdash yasovchilari o'zaro ekvivalent bo'ladi. Masalan: *Ayni shu maqsadda **yashayotganlar** oz emas.* Taqqoslanayotgan tillarda kelasi zamon sifatdashlari **-al/-y+-digan/--(y)acak, -(y)ecek** affikslari yordamida yasaladi hamda gapda otlashib, harakat bajaruvchini ifodalaydi.

Masalan:

***Aytadiganlaringiz** muhimmidi?*

Konuşacak olduklarınız önemliydi?

*Yarın yola **çıkacaklar** sabah saat sekizden önce terminale gelmiş olmalıdır(R.N.G.).*

*Ertaga yo'lga **chiqadiganlar** soat sakkizdan avvad terminalga kelgan bo'lishlari kerak.*

Shu bilan birga, ega vazifasidagi **-(y)acak, -(y)ecek** shaklli sifatdashlar **-moqchi bo'lmoq** tuzilmali sifatdashlar bilan semantik ekvivalentlik munosabatiga kirishishi hamda harakat bajaruvchilarni maqsadi, niyati kabi ma'nolar asosida anglatishi mumkin:

*Bugün sınava **girecekler** üst kattaki dersanede toplansın(R.N.G.).*

*Bugun imtihonga **kirmoqchi bo'lganlar** yuqori qavatdagi darsxonada to'plansin.*

Demak, o'zbek va turk tillaridagi paradigmatic jihatdan muqobil keluvchi sifatdash yasovchilari eganing ifoda materiali ko'rsatkichi sifatida bir-biriga to'la semantik, stilistik ekvivalent bo'la olmaydi. Bir qarashda umumiylikka ega bu qo'shimchalar ma'no doirasi, qo'llanilish o'rniga ko'ra butunlay boshqa tartibdagi ekvivalentlikni namoyon qiladi. Masalan, ega vazifasida kelgan **-gan** shaklli sifatdashning semantik-stilistik muqobili **-dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük; -(y)an, -(y)en** shakliga ega, holbuki, turk tilidagi o'tgan zamon sifatdashlari **-dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük; -miş, -miş, -muş, -müş** affikslari bilan yasaladi, **-(y)an, -(y)en** hozirgi zamon sifatdashining yasovchisi hisoblanadi. Ayni

chog‘da, **-dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük** ko‘rsatkichli sifatdoshning ega vazifasida kelishi uchun, o‘zbek tilidagi ekvivalentidan farqli holda, uni egalik shaklida qo‘llash talab etiladi. **-rlik, -gulik** shaklli sifatdoshlarning gapda ega vazifasini bajarishi kuzatilmadi.

* otlashgan sonlar bilan. Masalan, quyidagi gaplarda otlashgan tartib sonlar harakat bajaruvchini tartibiga ko‘ra belgisini ifodalash orqali anglatgan:

***Ikkinchisi** hov anavi yerda yotibdi(O.M.).*

***Ikisi** de işte orada yatıyor.*

*Fakat ilk sözünden sonra bir **ikincisi**, bir **üçüncüsü** lakırdıya karıştı (R.N.G.).*

*Ammo ilk gapidan so‘ng avval **ikkinchisi**, keyin **uchinchisi** suhbatga qo‘shildi.*

Turk tilshunosligida son alohida so‘z turkumi sifatida farqlanmagan. Predmetning miqdorini, tartibini bildiruvchi so‘zlar sifatning ma‘no turlaridan biri tarzida, ya‘ni son sifatlari deb o‘rganiladi (Banguoğlu, 1990:351-356). Xususan, o‘zbek tilida jamlovchi sonning yasovchilari bo‘lmish **-ov, -ovlon, -ala** affiksularining muqobillari turk tilida yo‘q. Bu vaziyatda sanoq sonlarga murojaat qilinadi.

Masalan:

*Modern ve bazı güzel meyvelerle tertip edilmiş olan bir sofru başında **dördü** birlikte oturdular(E.N.).*

*Zamonaviy ko‘rinishda va ayrim ajoyib mevalar bilan tuzalgan dasturxon atrofiga **to‘rtovi** birgalikda o‘tirishdi.*

Bu esa, turk tilidagi sonlarning semantik va qo‘llanilish doirasi nisbatan kengligini ko‘rsatadi

* o‘zbek tilida egalik otlashgan modal so‘zlar bilan ifodalanadi:

*Bu bolalarning mendan boshqa hech kimga **keragi** yo‘q(O.M.).*

Bu çocuklar ben hariç kimseye gerekmiyor.

Turk tilshunosligida modal so‘zlar alohida so‘z turkumi sifatida tafovutlanmagan. Umuman, modal so‘zlar sirasiga kiruvchi so‘zlarning biron so‘z turkumi guruhiga kiritilgan hollari turk tilshunosligiga oid ilmiy manbalarda uchramadi. Lekin modal so‘z sifatida ajratilishi zarur bo‘lgan so‘zlar, o‘zbek tilidagichalik ko‘p bo‘lmasa-da, mavjud. Masalan, **zarur, kerak, shart, darkor, lozim** kabi so‘zlar uchun turk tilida **gerek, lazım** so‘zlari qo‘llaniladi. Bunga sabab esa turk tilida fe‘ldan anglashilgan ish-harakatning bajarish zarurligi, kerakligini bildiruvchi **-malı, -meli** ko‘rsatkichli keraklilik maylining, shuningdek, **gerekmek /kerak bo‘lmoq** fe‘lining mavjudligidir. Turk tilidagi modal so‘zlar ega vazifasida qo‘llanmaydi.

* otlashgan ravish bilan:

***İchkari** ham yomon emas(E.A.).*

***İçerisi** de kötü değil.*

*Lakin mevsim icabi **oralar**, pekçok kimselerin rağbet ederek gittikleri ve toplandıkları yerdı(E.N.).*

*Lekin mavsum talabi bilan **o‘sha yerlar** juda ko‘pchilikning rag‘bat ko‘rsatib borgan va to‘plangan joylari edi.*

* har ikki tilda bir tovush, bo‘g‘in, affiks, yordamchi so‘z turkumlari ham ilmiy uslubdagi matnlarda ega bo‘lib kelishi mumkin:

***-lar** ko‘plik qo‘shimchasidir.*

-ler çoğul ekidir.

O'zbek va turk tillaridagi qo'shma ega quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

O'zbek va turk tillaridagi «etakchi komponent + yordamchi fe'l» tipidagi fe'llar bilan ifodalangan gap bo'laklarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilida yordamchi fe'lning barcha ma'no turlari – ko'makchi, yordamchi, to'liqsiz fe'llarning qo'shma ega tarkibida faol ishtirok etishi kuzatiladi. Turk tilida esa asosan yordamchi fe'llar qatnashuvidagi qo'shma egalar qo'llanilishi ko'rinadi. Masalan, quyidagi gapning egalari ot va yordamchi fe'llardan (**qilmoq, olmak**) tashkil topgan qo'shma fe'llar bilan ifodalangan:

Ha, pochchamizni xafa qilganimiz yoqmadimi?(S.A.)

Evet, eniştemizi üzdüğümüz hoşunuza gitmedimi?

Benim ona minnettar olmam lazım gelir(R.N.G.).

Men undan minnatdor bo'lishim kerak.

Turk tilida ko'makchi fe'lli qo'shma fe'llarning ega vazifasida qo'llanilishi o'zbek tilidagidan anchagina nafaol. Masalan, quyidagi gaplarning egalari «etakchi fe'l + ko'makchi fe'l» tuzilishiga ega:

Bu bosqichlardan allaqachon o'tib ketganlar juda ko'p(O.Yo.).

Bu evrelerden çoktandır geçmiş olanlar çoktur.

Ağza geleni gelişigüzel söyleyivermek terbiyesizliktir(Ö.S.).

Og'izga kelgan gapni pala-partish gapiraverish terbiyasizlik alomatidir.

O'zbek tilida egalar ot, ot xarakteridagi so'zlar va **ekan** to'liqsiz fe'li birikuvi orqali ifodalanishi mumkin. Ega tarkibida ishtirok etadigan **ekan** to'liqsiz fe'li uchun turk tilida yordamchi fe'llar yoki muayyan qo'shimchalar ishlatiladi. Masalan, quyidagi gapning egasi «baxtli ekanligi» birikmasi bilan ifodalangan bo'lib, tarjimada **-lik** yasovchisi yordamida yasalgan ot yoki **olmak** yordamchi fe'li vositasida ayni ma'no anglashilishi mumkin:

Baxtli ekanligi ko'zidan ayon.

Mutluluğu(mutlu olduğu) gözlerinden belli.

Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning birikishidan tashkil topgan, gap bo'lagi funksiyasida bir butun holda qo'llanilib, hozirgi tilda qisman leksikalizatsiyalashgan, frazeologiyalashgan leksik qo'shimmalar va tarkibi mustaqil hamda yordamchi komponentlarga ajralmaydigan sintaktik birliklar gapning kim yoki nima haqda ekanini bildirib kelsa, murakkab ega hisoblanadi. Binobarin, ikki va undan ortiq mustaqil leksik ma'noli so'zlar kompleksidan tarkib topgan, komponentlari ma'lum gap tarkibidagina o'zaro zich bog'lanib yaxlit butunlik tashkil etgan va muayyan kontekstda u yoki bu gap bo'lagi funksiyasida qo'llaniladigan sintaktik butunliklar – ajralmas sintaktik konstruksiyalar uchun murakkab bo'lak atamasini qo'llash ma'qul (Abdullayev, 1969:3).

Solishtirilayotgan tillarda murakkab ega quyidagicha ifodalanadi: Turg'un, barqaror ismlar, geografik, onomastik atamalar, tashkilot, muaassasa, kitob, jurnal nomlari gapning sub'ekti vazifasini bajaradi:

«Xalq so'zi» – boy berilmaydigan imkoniyat(G.).

“Halk Sözü” – elde tutulması gereken olanak.

BM Güvenlik Konseyi önceki günkü toplantısında tazminat miktarını azaltmayı kararlaştırdı (R.H.K.).

BM Xavfsizlik Kengashi avvalgi kuni bo'lib o'tgan majlisida kompensatsiya miqdorini ko'paytirishga qaror qildi.

Keltirilgan gaplarning birinchisida gazeta nomi, ikkinchisida muassasa nomi ega vazifasida qo'llangan.

O'zbek va turk tillaridagi frazeologik birikmalar bilan ifodalangan egalar murakkab ega hisoblanadi. Keyingi gaplarning egalari **-lik** qo'shimchasini olgan **ko'zga yaqin**, sifatdosh shaklidagi **elini kolunu baglamak – qo'l-oyog'ini bog'lamoq** iboralari bilan ifodalangan:

Ko'zga yaqinlik ham bir balo ekan (O.Yo.).

Güzellik de bir belaymıs.

Elini kolunu baglayan yok ya(R.N.G.).

Qo'l-oyog'ingni bog'layotganlar yo'q-ku.

O'zbek va turk tillarida gapda ajralmas sintaktik konstruksiyaga aylangan aniqlovchili birikmalar murakkab ega vazifasini bajaradi:

Sherning yuragi bor senda(O.Yo.).

Aslanın kalbı var sende.

Son zamanlarda adamcağızın dertleri tazelenmeğe başladı(R.N.G.).

So'nggi paytlarda bechora odamning dardlari yangilana boshladi.

Mazkur gaplarda «qaratqich+qaralmish» tipidagi aniqlovchili birikmalar gapning egasi vazifasini bajargan. «Ega+kesim» formasida shakllanib, gapda bitta bo'lak vazifasida keladigan qo'shilmalar(polupredikatlar) gapda murakkab ega bo'lib keladi.

Masalan:

Sattor, oilangiz borligi menga bunchalik ta'sir qilmasligi kerak edi(O.Yo.).

Sattar, eşiniz var olduđu beni bu kadar etkilememesi lazımdı.

Aralarında büyük fark olduđu meydandadır(E.N.).

Ular o'rtasida katta farq borligi ma'lum.

Teng bog'lanishli qo'shilmalar taqqoslanayotgan tillarda murakkab ega vazifasini bajarib keladi:

Marjonoy bilan Oltinoy vaqtini o'tkazish niyatida xamir qorishdi, non yopishdi(O.Yo.).

Mercanay ve Altınay zaman geçsin diye hamur yaptılar, ekmek pişirdiler.

Vefik Paşa ile Cavidan şaşırıp kalmışlardı(R.N.G.).

Vafik poshsho bilan Javidan hayron bo'lib qolgan edilar.

Ega vazifasini bajarib kelgan ism-familiyalar tuzilishiga ko'ra murakkabdir:

Nodirning yonida ishxonalarining boshlig'i Fayzulla Beknazarov ham shampun ichib salqinlab o'tirgan ekan(O.Yo.).

Nadir'in yanında iş yerinin patronu Feyzulla Beknazarov da şampuan içerek dinleniyormuş.

Yahya Kemal Nasif Bey Fikret'in lisanıyla serlevhali, mevzulu şiirler de yazıyor(Ö.S.).

Yahyo Kamol Nasifbey Fikrat usulida turli mavzularda she'rlar yozyapti.

O'zbek tilidan farqli ravishda turk tilidagi ega vazifasini bajargan so'zlar **-dur, -dir, -dur, -dür,-tir, -tir, -tur, -tür** affiksini olgan bo'lishi mumkin. Bu holat turk tilida keng tarqalganligi sababli alohida eganing turi sifatida ajratilishiga ham sabab bo'lgan (Hatiboğlu, 1982:120). Ammo **-dur, -dir, -dur, -dür,-tir, -tir, -tur, -tür** affiksi egaga qo'shilib kelganida, undan anglashilgan ma'noni kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatish uchungina xizmat qiladi. Demak, stilistik maqsadlarda qo'llanuvchi bu so'zshaklini eganing alohida turi, deb farqlashga asos yo'q. Masalan, quyidagi gapning egasi tarkibida qatnashgan **-tir** ko'rsatkichi orqali egadan tushunilgan narsa, hodisaning me'yordan ortiq, davomli ekanligi anglashilgan:

*Daha geçen sonbaharda içime bir **ateştir** düştü*(R.N.G.).

O'tgan kuzdayoq ichimda shunday otash yona boshladiki.

Xulosa

O'zbek tilshunosligidagi va turk tilshunosligidagi ega talqinlarining tahlili quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zbek tilining an'anaviy grammatikasiga ko'ra gapning bosh bo'lari sifatida ega qabul qilingan bo'lsa-da, keyingi paytlarda gapning bosh bo'lari kesim degan nuqtai nao'ardan ish olib borilmoqda. Turk tilshunosligida esa, aksincha, kesim gapning tamal toshi, asosiy bo'lari hisoblanadi. Turk tilshunosligida kesimni faqat ifoda materialiga ko'ra tasniflash masalasiga birmuncha e'tibor qilinganini ko'rish mumkin. Kesimning tuzilishiga ko'ra ikki so'zli kesim, takroriy kesim kabi turlari ajratilgan bo'lsa-da, bu tasniflar talabga to'la javob bermaydi. Demak, turk tilidagi kesim va uning spetsifik xususiyatlariga oid fikr-mulohazalarni jamlash hamda tahlil etish asnosida ma'lum bo'ladiki, bu gap bo'lagining izchil tadqiqi amalga oshirilmagan. O'zbek tilida eganing leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra, tuzilishiga ko'ra tasniflari mavjud. Turk tilshunosligida ham eganing o'n, o'n bir turini qamrab oluvchi tasniflar amalga oshirilgan. Ammo turk tilidagi bu tasniflarda izchillikka rioya qilinmaganligi, sintaktik, stilistik va morfologik kategoriyalar qorishtirib yuborilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Natijada, aslida eganing turi sifatida ajratilish uchun yetarli asos bo'lmagan hollarda ham bunday tasnif amalga oshirilganligini ko'ramiz.

Solishtirilayotgan tillardagi bosh bo'laklar tuzilishiga ko'ra uch xil bo'ladi: sodda, tarkibli, murakkab. Sodda ega va sodda ot-kesim ot, olmosh, otlashgan sifat, otlashgan sifat-dosh, jamlovchi son yoki otlashgan son, ravish, harakat nomi kabi so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Sodda bosh bo'laklar o'rtasidagi asosiy farqlar morfologik planda namoyon bo'ladi. Masalan, turk tilida predmetning miqdorini, tartibini bildiruvchi so'zlar sifatning ma'no turlaridan biri tarzida, ya'ni son sifatleri deb o'rganiladi. Xususan, o'zbek tilida jamlovchi sonning yasovchilari bo'lmish, **-ov, -ovlon, -ala** affikslarining muqobillari turk tilida yo'q. Bu vaziyatda sanoq sonlarga murojaat qilinadi. Yoki: o'zbek tilidagi maqsad maylining **-moqchi** ko'rsatkichini olgan fe'llar sodda fe'l-kesim bo'lib keladi. Turk tilida ish-harakatning bajarish maqsadini ifodalash uchun kelasi zamon fe'lining ko'rsatkichi **-(y)ecek²**ga yoki «-mek affiksli harakat nomi + **üzere /ustida (uchun)** ko'makchisi» shaklli fe'lga murojaat qilinadi, bunda ikkinchi qayd etilgan ko'rinishdagi kesim tarkibli kesim hisoblanadi.

O'zbek tilidan farqli holda, turk tilshunosligida modal so'zlar alohida so'z turkumi sifatida farqlanmagan. Umuman, modal so'zlar sirasiga kiruvchi so'zlarning biron so'z turkumi guruhiga kiritilgan hollari turk tilshunosligiga oid ilmiy manbalarda uchramadi. Lekin modal so'z sifatida ajratilishi zarur bo'lgan so'zlar, o'zbek tilidagichalik ko'p bo'lmasa-da, mavjud hamda bu so'zlar kesim vazifasini bajarib kelishi mumkin. Shuningdek, har ikki tildagi ega vazifasini bajaruvchi harakat nomi, sifat-doshning morfologik ko'rsatkichlari o'zaro anchagina tafovutlanadi. Xususan, o'zbek tilidan farqli ravishda turk tilidagi ega vazifasini bajargan so'zlar **-dir⁸** affiksini olgan bo'lishi mumkin. **-dir** affiksi egaga qo'shilib kelganida, undan anglashilgan ma'noni kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatish uchungina xizmat qiladi, ya'ni stilistik maqsadlar uchun qo'llaniladi.

O'zbek va turk tillarida yetakchi fe'l hamda ko'makchi fe'ldan tashkil topgan fe'lning analitik shakli gapda tarkibli bosh bo'lak vazifasini bajaradi. O'zbek tilidagi fe'llar leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra tasniflangani holda, turk tilshunosligida fe'llarni ma'nosiga ko'ra guruhlashtirishda izchillikning yo'qligi ko'zga tashlanadi. Shu bois, turk tilidagi fe'llarni o'zbek tilidagi fe'llar singari leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiq.

O'zbek va turk tillaridagi «etakchi komponent + yordamchi fe'l» tipidagi fe'llarni o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilida yordamchi fe'lning barcha ma'no turlari – ko'makchi, yordamchi, to'liqsiz fe'llarning tarkibli ega tarkibida faol ishtirok etishi kuzatiladi. Turk tilida esa asosan yordamchi fe'llar qatnashuvidagi tarkibli egalar qo'llanilishi ko'rinadi. Ega tarkibida ishtirok etgan to'liqsiz fe'llar uchun yordamchi fe'llar ishlatiladi.

O'zbek va turk tillaridagi ikki komponentli tarkibli kesimlarning asosiy ko'rinishi «ot, ot xarakteridagi so'z + yordamchi fe'l», «ot, ot xarakteridagi so'z + to'liqsiz fe'l», «etakchi fe'l+to'liqsiz fe'l», «etakchi fe'l+ko'makchi fe'l» qolipiga egadir. Turk tilida bu qoliplarning asosan birinchi uch ko'rinishi keng tarqalgan bo'lib, «etakchi fe'l+ko'makchi fe'l» ko'rinishi nisbatan ayrim hollarni hisobga olmaganda, nafaoldir. Bu holat o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarning miqdori turk tilidagi ko'makchi fe'llarga nisbatan ko'pligi hamda ularning faol qo'llanilishi bilan belgilanadi.

Turg'un, barqaror ismlar, geografik, onomastik atamalar, tashkilot, muaassasa, kitob, jurnal nomlari, murakkab so'zlar, frazeologik birikmalar, aniqlovchili birikmalar, polupredikatlar, teng bog'lanishli qo'shimmalar, muayyan qolipli birikmalar solishtirilayotgan tillarda murakkab bosh bo'laklar vazifasini bajarib keladi.

Bibliografiya

ABDULLAYEV, H. (1969). *Hozirgi O'zbek Adabiy Tilida Gap Bo'Laklarining Ajralmas Sintaktik Konstruksiya Bilan Ifodalanishi*. Filol.Fan.Nomz....Dis. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.

ABDURAHMONOVA, M. (2004). *O'zbek Va Turk Tillarida Ot Kategoriyalarining Talqini*. Filol.Fan.Nomz....Dis.Avtoref. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

ABDURASULOV, Yo. (2008). *Turkiy Tillarning Qiyosiy-Tarixiy Grammatikasi*. Toshkent, Fan.

BANGUOĞLU, T. (2004). *Türkçenin Grameri*. Ankara:Türk Tarih Kurumu Basım Evi.

BASKAKOV, N.A. (1960). *Tyurkskiye Yazıki*. Moskva: Nauka.

BILGIN, M. (2006). *Anlamdan Anlatıma Türkçemiz*. Ankara: Anı Yayıncılık.

BOLULU, O. (1992). Türkçede Eylemin ve Gerçekleştiricinin Özellikleri. Eylemler ve Özneler Üzerinde Bir Anlam İncelenmesi. *Türk Dili*, 31, 32, s. 24-29, 46-52.

DEMİR, N.; Yılmaz, E. (2003). *Türk Dili*. Ankara: Grafiker Yayıncılık.

DEMİRCAN, Ö. (2003). *Türk Dilinde Çatı*. İstanbul: Papatya.

DIZDAROĞLU, H. (1976). *Tümcebilgisi*. Ankara: TDK.

ERDAL, M. (1991). *Old Turkic Word Formation*. Otto Harrassowitz, Wiesbaden.

ERGİN, M. (1993). *Türk Dili Bilgisi*. İstanbul: Bayrak.

HATİBOĞLU, V. (1982). *Türkçenin Söz Dizimi*. Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi.

KARAHAN, L. (2006). *Türkçede Söz Dizimi*. Ankara: Akçağ.

- KORKMAZ, Z. (2003). *Türkiye Türkçesinin Grameri*. Ankara: TDK.
- O'zbek tili grammatikasi. (1975). Ikki jildlik. J. I. Morfologiya. Toshkent: Fan.
- OMONTURDIYEV, J. (1988). *Hozirgi O'zbek Adabiy Tilida Gap Bo'Laklari Tipologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
- SAFAYEV, A. (1958). *Glavnie Chleni Predlojeniya V Sovremennom Uzbekskom Yazike*. Tashkent: Izd.SAGU.
- SAYFULLAYEV, A.R. (1984). *Semantiko-Grammaticheskiye Osobennosti Chlenov Predlojeniya V Sovremennom Uzbekskom Literaturnom Yazike*. Toshkent: Fan.
- SEREBRENNIKOV, B.A., GADJIYEVA, N.Z. (1986). *Sravnitelno-Istoricheskaya Grammatika Tyurkskix Yazikov*. Moskva: Nauka.
- SEREBRENNIKOV, B.A., GADJIYEVA, R.Z. (1979). *Sravnitelno-Istoricheskaya Grammatika Tyurkskix Yazikov*. Baku: Maarif.
- SHABANOV, J. (2004). *Turk Va O'zbek Tillarida Harakat Fe'llari Fe'llari Semantikasi*. Filol.Fan.Nomz....Diss. Toshkent: O'Zr FA Til Va Adabiyot Instituti.
- SHCHERBAK, A.M. (1970). *Sravnitel'naya Fonetika Tyurkskix Yazikov*. Leningrad: Nauka.
- SHCHERBAK, A.M. (1977). *Ocherki Po Sravnitel'noy Morfologii Tyurkskix Yazikov (Imya)*. Leningrad: Nauka.
- SHCHERBAK, A.M. (1981). *Ocherki Po Sravnitel'noy Morfologii Tyurkskix Yazikov (Glagol)*. Leningrad: Nauka.
- SHOAZIZOV, Sh. (1973). *Hozirgi O'zbek Adabiy Tilida Ega Va Uning Ifodalanishi*. Filol.Fan.Nomz....Diss. Toshkent: O'Zr FA Til Va Adabiyot Instituti.
- SIDDIQOV, Z. (2000). *O'zbek Va Turk Tillarida Ko'Ruv Leksemalari Semantikasi*. Filol.Fan.Nomz...Dis.Avtoref. Toshkent: O'Zr FA Til Va Adabiyot Instituti.
- Sravnitelno Istoricheskaya Grammatika Tyurskix Yazikov. (Morfologiya)*. (1988). Moskva: Nauka.
- Sravnitelno-Istoricheskaya Grammatika Tyurskix Yazikov (Fonetika)*. (1984). Moskva: Nauka.
- TUNA, O. N. (2003). Türkçede Geçişli Ettirgen Fiiller. *TDED.XXIY-XXY*. s.381-428.
- UNDERHILL, R. (1976). *Turkish Grammar*. The MIT press.
- USMONOVA, Sh. (1998). *O'zbek Va Turk Tillarida Somatik Frazеologizmlar*. Filol.Fan.Nomz....Dis.Avtoref. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
- XUDOYBERGANOVA, Z. (1999). *O'zbek Va Turk Tillarida Fe'ning O'Tgan Zamon Shakllari Tizimi*. Filol.Fan.Nomz.... Dis. Toshkent: O'Zr FA Til Va Adabiyot Instituti.
- XUDOYBERGANOVA, Z. (2007). *O'zbek Va Turk Tillarida Monotaksemalarning Ilmiy Talqini*. Filol.Fan.Nomz.... Dis. Toshkent: O'Zr FA Til Va Adabiyot Instituti.
- YAMAN, E. (2000). *Türkiye Türkçesi ve Özbek Türkçesinin Söz dizimi Bakımından Karşılaştırılması*. Ankara: TDK.